

## ISLOM MOLIYASIDA MUSHORAKA SHARTNOMASI

**Oybek Akhmadjonov**

Qo‘qon Universiteti katta o‘qituvchisi

**Akhrorjon Abdullaev**

Qo‘qon Universiteti Iqtisodiyot yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

**Xurshidbek Mavlonbekov**

Qo‘qon Universiteti Menejment yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

**Ziyodbek Sharifjonov**

Qo‘qon Universiteti Menejment yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

### ANNOTATSIYA

Islom bankining an’anaviy bank ishi o‘rtasidagi asosiy farq shundaki, Islom banki shariat tamoyillariga asoslangan bo‘lsa, an’anaviy bank ishi faqat inson tomonidan yaratilgan. Shunday qilib, mahsulotlarning xususiyatlari va biznes yondashuvi kabi operatsiyalarning barcha jihatlari shariat qonunlaridan kelib chiqqan bo‘lib, bu an’anaviy banklarnikidan sezilarli farqga olib keladi. Ushbu maqolada Islomiy banklardagi Mushoraka shartnomasi haqida batafsil ma’lumotlar berilgan. Undagi sheriklar o‘rtasida foyda va zararlarni qanday qilib o‘zaro taqsimlash, ularning ulushlari haqida to‘liq ma’lumotlarga javob olishingiz mumkin.

**Kalit so‘zlar:** Islom banki, Shirkat, Mushoraka, sherikchilik, foyda taqsimoti, foyda, zarar, kafolat, mijoz.

### KIRISH

Islom moliyasi haqida so‘z ketganda MUSHORAKA atamasi asosan moliyalashtirish bilan bog‘liq holda qo‘llaniladi. “Mushoraka” atamasi “shirkat” o‘zagidan olingan. “Shirkat” atamasi islom huquqshunosligida keng qo‘llaniladi va uning ma’nosi ham “mushoraka”ga qaraganda kengroq. Quyida ushbu asosiy tushunchalarning ma’nosini ko‘rib chiqamiz.

“Shirkat” – “bo‘lishish” degan ma’noni bildiradi va islom fiqhida u ikkiga bo‘linadi:

Shirkat-ul-Mulk

Ikki yoki undan ortiq shaxslarning ma’lum bir mulkka nisbatan birgalikdagi egaligiga aytildi. Bunday shirkat tomonlarning xohishi bilan, masalan muayan bir

mulkni birgalikda sotib olish orqali paydo bo‘lishi mumkin. Bunda sotib olingan mulkka nisbatan tomonlarning birgalikdagi munosabati Shirkat-ul-Mulk deyiladi. Bu holatda tomonlarning bunday munosabati ularning o‘z xohishlariga ko‘ra paydo bo‘ldi. Ammo ba’zida “shirkat” tomonlarning hech qanday ishtiroki va xohishi bo‘lmagan holda paydo bo‘ladi. Masalan, kimdir vafot etgan taqdirda, uning merosxo‘rlari vafot etgan shaxsning mol-mulkini meros qilib olishadi va ushbu mol-mulkka nisbatan ularning birgalikdagi egaligi, ya’ni shirkat paydo bo‘ladi.

### Shirkat ul-Aqd

Bu shirkatning ikkinchi turi bo‘lib, “shartnomalar asosidagi o‘zaro sherikchilik”ni anglatadi, qisqaroq nomlaydigan bo‘lsak “qo‘shma tijorat korxonasi” deyish ham mumkin.

### Shirkat ul-Akd uch turga bo‘linadi:

Shirkat ul-Amval, bunda tomonlar biror korxonaga sarmoya kiritishadi va shu korxona doirasida sherikka aylanishadi.

Shirkat ul-Amal, bunda ikki yoki undan ortiq sherik mijozlarga qandaydir pullik xizmatlar ko‘rsatishadi va tushgan daromadni avvaldan kelishilgan tartibda va ulushda bo‘lishib olishadi. Bu turdagilarning yana bir necha nomi bor, jumladan “shirkat us-sanai” va “shirkat ul-abdon”.

Shirkat ul-vujuh, bunda tomonlar umuman sarmoya tikishmaydi. Ular nasiyaga mol sotib olishadi va naqdga sotishadi va olingan foydani kelishuvga ko‘ra taqsimlashadi.

Yuqorida aytib o‘tilgan sherikchilik / “almashuv” ko‘rinishlarining barchasi islom fiqhida “shirkat” deyiladi.

Shu yerda bir narsani aytib o‘tish kerak, “Mushoraka” iborasi ilgari islom fiqli bo‘yicha yozilgan kitoblarda qo‘llanilmagan, ushbu ibora nisbatan yaqinda, islom moliyasi mavzusida yozgan olim va mutaxassislar tomonidan qo‘llanishni boshlagan. Undan avval “Shirkat”, ya’ni ikki yoki ko‘proq shaxslar o‘z mablag‘larining bir qismini sherikchilik asosidagi tijorat korxonasi yoki loyihasiga sarmoya sifatida kiritishini anglatuvchi – “Shirkat-ul-amval” iborasi qo‘llangan. Ba’zida bunga xizmat ko‘rsatish sohasidagi sherikchilik – Shirkat ul-amal ham kiritilgan.

Ko‘rib turganimizdek, “Shirkat” atamasi bugungi kunda ishlatilayotgan va faqat “Shirkat ul-amval” bilan cheklangan “Mushoraka” atamasidan ko‘ra kengroq ma’noga ega bo‘lib o‘z ichiga sherikchilikning barcha mulkiy va amaliy ko‘rinishlarini oladi.

### ASOSIY QISM

“Mushoraka” biz ko‘rib chiqayotgan mavzu maqsadiga ko‘proq to‘g‘ri kelganligi, hamda uning “Shirkat-ul-amval” bilan deyarli bir xil bo‘lganligi sababli, biz birinchi navbatda ushbu shirkat turini an’anaviy nuqtai nazardan, so‘ngra esa uni zamonaviy

sharoitda moliyalashtirish tizimi doirasida qo‘llanilishi yuzasidan qisqacha ma’lumot berib o‘tamiz.

#### Mushoraka: asosiy qoidalar

Musharaka yoki Shirkat ul-amval – ikki yoki undan ortiq tomonlarning shartnama asosidagi munosabatlari bo‘lib, bunda huquqiy jihatdan to‘g‘ri / yaroqli bo‘lgan shartnomaga xos bo‘lgan jihatlar, jumladan: tomonlar shartnomani imzolashga qodir bo‘lishlari, bu majburiy emas ixtiyoriy tarzda amalga oshirilayotgan bo‘lishi, noqonuniy shart va majburiyatlarni o‘z ichiga olmasligi, shartnomaga aloqador ma’lumotlar ikki tomon uchun ham birdek ochiq bo‘lishi kabilar albatta mavjud bo‘lishi kerak.

Shu bilan birga faqat Mushoraka shartnomasiga xos bo‘lgan jihatlar borki, ular quyidagilardir:

#### Foyda taqsimoti

tomonlarning foydadagi ulushi shartnama tuzish paytida kelishilgan bo‘lishi kerak, aks holda shartnomaga shar‘iy jihatdan kuchga ega bo‘lmaydi;

har bir sherik uchun foyda ulushi, olingan haqiqiy foydaga mos ravishda taqsimlanadi, uning biznesga tikkan sarmoyasiga mutanosib ravishda emas (ya’ni foyda ko‘rilsa unga foydadan avvaldan kelishilgan miqdorda ulush ajratiladi, agar foyda ko‘rilmasa ulush ajratilmaydi). Shuningdek, har qanday sherikka qat’iy miqdordagi to‘lovlar qilinishiga kelishish yoki uning biznesga kiritgan sarmoyasi asosida foyda miqdorini oldindan belgilash mumkin emas.

#### Masalan:

A va B sherikchilik asosida tadbirkorlik faoliyati olib borishga kelishishdi. Unga ko‘ra, A tomon har oyda 100 dollar miqdorida foyda olishi, qolgan foyda esa B tomonga berilishi ko‘zda tutildi. Bunday sherikchilik botil (nojoiz) hisoblanadi. Xuddi shunday, tomonlar A tomon o‘zi biznesga kiritgan sarmoyaning 15 foizini olishiga kelishishlari ham mumkin emas. Foydadagi ulush faqat olingan haqiqiy foydaga nisbatan avvaldan kelishilgan nisbatda taqsimlanishi mumkin.

Agar sheriklardan birortasiga qat’iy belgilangan to‘lov qilinishi yoki biznesga kiritgan sarmoyasi asosidagi to‘lov amalga oshirilishi ko‘zda utilgan bo‘lsa, u holda, Mushoraka shartnomasi muddati yakuniga yetganda ushbu amalga oshirilgan to‘lovlar shu sherikning foydadagi ulushidan ushlab qolinishi, yoki agar foyda ko‘rilmasa u holda amalga oshirilgan to‘lovlar shu sherik tomonidan qoplanishi haqidagi band shartnomaga kiritilishi lozim.

#### Foyda va sarmoya nisbati

Sheriklarning foydadagi ulushi ularning biznesga tikkan sarmoyasiga mos bo‘lishi shartmi yoki yo‘qmi?

Imom Abu Hanifa ijtihodiga ko‘ra oddiy holatda foyda va sarmoya nisbati bir biridan farq qilishi mumkin, ammo agar sheriklarning biri biznesda faol ishtirok etmayman, Mushoraka shartnomasi davomida faqat sarmoyador sifatida qolaman desa, u holda uning foydadagi ulushi uning umumiyligi sarmoyadagi ulushiga mos yoki undan kamroq bo‘lishi mumkin, lekin ortiq bo‘lishi mumkin emas.

#### Zararlar taqsimoti

Barcha musulmon ulamolari zararlarni taqsimoti masalasida yakdillar, ya’ni ko‘rilgan zararlar har bir sherik/hamkorning kiritgan sarmoyasiga mos ravishda taqsimlanadi. Masalan, korxona (yoki biznes loyiha) doirasida moliyaviy zarar ko‘rilsa, 40% sarmoya kiritgan biznes hamkorning zarari ham shuncha, ya’ni 40% bo‘ladi, 60% kiritganniki ham mos ravishda 60% bo‘ladi. Bundan kam ham emas, ko‘p ham emas. Bunga zid bo‘lgan har qanday kelishuv shartnomani botil (bekor) qiladi.

Imom Abu Hanifa fikriga ko‘ra foydadagi ulush, kiritilgan sarmoyaga mutanosib bo‘lishi shart emas, ammo zarar sarmoyaga mos bo‘lishi kerak.

Aynan mana shu tamoyil quyidagi mashhur shariat qoidasida aks etgan:

“Ko‘rilgan foyda tomonlarning kelishuviga ko‘ra, zarar esa kiritilgan sarmoyaga mos ravishda taqsimlanadi”.

Mushoraka (sherikchilik) asosida moliyalashtirishda kafolat masalasi

Mushorakani tushunishimiz uchun savol va javob bilan biroz bilim olishimiz kerak.

#### Savol:

Islom banki boshqaruvi o‘zining bir mijoziga (savdo korxonasiiga) garov taqdim etish sharti bilan, kompaniyaning aylanma mablag‘larga bo‘lgan talabini qondirish uchun moliyaviy mablag‘ ajratilishini ma’qulladi.

Moliyalashtirish shartlariga ko‘ra, Bank va Mijoz KAMAYIB BORUVCHI MUSHORAKA (“Mushoraka mutanaqisa”) shartnomasi imzolaydilar. Bunda korxonaning ulushi uning sof aktivlari (ya’ni, “aktivlar-(ayruv) majburiyatlar”) qiymatiga teng bo‘ladi, Bank esa Mushorakaning umumiyligi ulushiga mos bo‘lgan mablag‘ taqdim etadi. Ko‘rilgan foyda sheriklar o‘rtasida kelishilgan nisbatga ko‘ra taqsimlanadi va Bankning Mushorakadagi ulushi moliyalashtirish davomida sekin asta Mijoz tomonidan sotib olinadi (ya’ni Bankning ulushi kamayib boradi). Bankning garov talabini qondirish uchun Mijoz bankka boshqa korxonaning kafolatini taklif qiladi. Ammo ushbu korxonaning 51% egalik ulushi Mijozga tegishli bo‘lganligi sababli bunday kafolatni qabul qilish mumkinligi yuzasidan shariat hukmi bayon etilishi so‘raladi.

#### Ushbu masala yuzasidan shariat kengashining xulosasi:

Mushoraka shartnomasining asosiy maqsadi sherikchilik mablag‘laridan foydalanish orqali topilgan foydani tomonlar o‘rtasida bo‘lishishdan iborat. Bu tamoyil

zarar ko‘rilgan holatda ham amal qiladi, ya’ni zarar ham har bir sherikning Mushorakadagi ulushiga mutanosib ravishda taqsimlanishi kerak.

Shundan kelib chiqqan holda, Bank va Mijoz sherik bo‘la turib, zarar ko‘rilganda faqat bir taraf zararni qoplaydi deb kelishishiga ruxsat etilmaydi. Shunday ekan, Mijoz Bank tomonidan taqdim qilingan mablag‘larni ehtimoliy zarardan kafolatlashi mumkin emas. Ammo, zarar biror tarafning foydasiga uchinchi bir taraf tomonidan kafolatlanishiga ruxsat etiladi, ammo bunday kafolat xolisona berilgan bo‘lishi, ya’ni moliyaviy yoki nomoliyaviy evazlarsiz bo‘lishi va shular bilan birga Mushoraka kelishuvidan butunlay mustaqil bo‘lishi kerak.

Yuqorida ko‘rsatilgan holatda, kafolat berayotgan uchinchi taraf 51%ga Mushoraka shartnomasi ishtirokchisi bo‘lgan Mijozga tegishli bo‘lganligi uchun, shariat nuqtai nazaridan bunday kafolat joiz emas. Buning sababi shuki, kafolat taqdim qilinayotgan (bu holatda Mijoz) va kafolat berayotgan (uchinchi taraf) tomonlar o‘rtasida yirik egalik munosabatlari bo‘lmasligi kerak. Zamonaviy shariat ulamolari kafolat taqdim qilinayotgan tarafning kafolat berayotgan uchinchi tomonda ko‘pi bilan 50% egaligi bo‘lsa kafolat qabul qilinishi mumkin deb hisoblaydilar.

**Yuqoridagi qoida – kiritilgan sarmoyani yo‘qotilishini kafolatlash yuzasidan.** Ammo, agar kafolat Mushoraka kelishuvi shartlarining qasddan buzilishi, suiiste’mol yoki loqaydlik qilinishi sababidan yuzaga keladigan zararlarni qoplash maqsadida bo‘lsa, u holda mijozning o‘zidan yoki uning to‘liq yoki qisman egaligida bo‘lgan tashkilotdan kafolat olishga ruxsat beriladi. Bu kabi kafolat olishga ruxsat etilishining sababi shuki, bu bilan Mushorakadagi har bir sherik Mushoraka kelishuvi shartlari suiiste’mol qilinganligi, e’tiborsiz qoldirilganligi yoki buzilishi sababidan yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan zararlar yuzasidan o‘z zimmasiga mas’uliyat oladi, hatto ushbu zarar uning (ya’ni tomonlardan birining) Mushorakadagi sarmoyasi ulushi miqdoridan oshib ketgan taqdirda ham.

## XULOSA

Xulosa qilib shunday deyishim mumkinki Mushoraka kelishuv shartnomasi Islomiy moliyaning asosiy shartnoma turlaridan biri hisoblanadi va bu shartnoma turisiz islomiy moliya o‘zining mohiyatlaridan birini yo‘qotgan bo‘lardi. Mushoraka shartnomasining asosiy maqsadi sherikchilik mablag‘laridan foydalanish orqali topilgan foydani tomonlar o‘rtasida bo‘lishishdan iborat. Bu tamoyil zarar ko‘rilgan holatda ham amal qiladi, ya’ni zarar ham har bir sherikning Mushorakadagi ulushiga mutanosib ravishda taqsimlanishi kerak. Barcha musulmon ulamolari zararlarni taqsimoti masalasida yakdillar, ya’ni ko‘rilgan zararlar har bir sherik/hamkorning kiritgan sarmoyasiga mos ravishda taqsimlanadi. Masalan, korxona (yoki biznes loyiha) doirasida moliyaviy zarar ko‘rilsa, 40% sarmoya kiritgan biznes hamkorning zarari ham shuncha, ya’ni 40% bo‘ladi, 60% kiritganniki ham mos

ravishda 60% bo‘ladi. Bundan kam ham emas, ko‘p ham emas. Huddi shunday mushoraka shartnomasi amalgal oshadi va zararlar ham foyda ham sheriklar o‘rtasida shartnomadagidek taqsimlanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFEREBCES)**

1. Ahmadjonov, A Abdullayev, M Mamayusupov, O Umarjonov. (2021). Raqamli iqtisodiyotda boshqaruv muammolari. Science and Education, 2(10), 636-642.
2. AA, Mulaydinov Farkhod Muratovich. (2021). RAQAMLI IQTISODIYOT TUSHUNCHASI, AFZALLIKLARI VA AMALIY AHAMIYATI. АХБОРОТ-КОММУНИКАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ВА ТЕЛЕКОММУНИКАЦИЯЛарнинг ЗАМОНАВИЙ МУАММОЛАРИ ВА ЕЧИМЛАРИ ОНЛАЙН РЕСПУБЛИКА ИЛМИЙ-ТЕХНИК АНЖУМАНИНИНГ МАЪРУЗАЛАР ТЎПЛАМИ, 2 (6), 794
3. A Abdullaev. (2021). RAQAMLI IQTISODIYOT - KADRLAR TAYYORLASHNING DOLZARB MASALALARI. Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyotning o‘ziga xos xususiyatlari, uning ...
4. Akhmadjonov, A Abdullayev, A Abdupattayev, M Sultonov. (2021). ISLAMIC BANKING MANAGEMENT, ASSETS AND LIBILITIES. Scientific progress, 2 (6), 1525-1532.
5. M Mamadjonov, A Abdullayev, I Abdurahmonov, A Mamadaliyev. (2021). CHALLENGES OF MANAGEMENT IN THE DIGITAL ECONOMY. Scientific progress, 2 (6), 1533-1537.
6. MMQ Tojiyeva, AAU Abdullayev. (2021). THE USE OF MODERN TECHNOLOGIES IN STATISTICAL DATA COLLECTION. Asian Journal of Multidimensional Research 10 (12), 250-254.
7. O Akhmadjonov, A Abdullaev, B Umarjonov, M Shamsiddinov. (2021). ISLOM MOLIYASINING XUSUSIYATLARI. Scientific progress 2 (8), 634-638.
8. O Akhmadjonov, A Abdullaev, S Yusupuv, J Anvarov. (2021). ISLOM BANKCHILIGIDAGI XAVF. Scientific progress 2 (8), 639-642.
9. O Akhmadjonov, A Abdullaev, S Karimova, F Solijonova. (2022). Jahon savdo tashkiloti boshqaruv tizimi. Scientific progress 3 (2), 343-347.
10. O Akhmadjonov, A Abdullaev, J Anvarov, S Ismoilov. (2022). ISLOM MOLIYASI. Scientific progress 3 (2), 45-47.
11. O Akhmadjonov, A Abdullaev, M Shamsiddinov, B Umarjonov. (2022). ISLAMIC FINANCE. Scientific progress 3 (2), 48-50.
12. A Abdullaev. (2022). BOBUR VA BOBURIYLAR SULOLASINING JAHON SIVILIZATSIYASINING YANGILANISHIGA QO‘SHGAN HISSASI. NEW

RESEARCH ON THE WORKS OF ALISHER NAVOI AND ZAHIRUDDIN MUHAMMAD BABUR 1 ...

13. A Akhrorjon. (2022). Reasons, problems and consequences for the accession of the Uzbek economy to the WTO. International scientific conference "Topical issues of the economy in modern ...
14. A Akhrorjon, A Oybek. (2022). Danger in Islamic Banking. International scientific conference "Topical issues of the economy in modern ...
15. A Akhrorjon, A Oybek. (2022). Characteristics of Islamic Finance. International scientific conference "Topical issues of the economy in modern ...
16. A Akhrorjon. (2022). Uzbekistan and the World Trade Organization management system. International scientific conference "Topical issues of the economy in modern ...
17. A Abdullaev. (2022). O'ZBEKISTON IQTISODIYOTI UCHUN JSTGA A'ZO BO'LISH SABAB MUAMMO VA NATIJALARI. RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA TA'LIM ISTIQBOLLARI 1 (2), 113-121
18. A Akhrorjon, K Zumradkhan. (2022). THE IMPACT AND RESULTS OF MEMBERSHIP OF THE WTO ON THE EDUCATION SYSTEM. Educational Research in Universal Sciences 1 (5), 24-32
19. ZMQ Keldiboyeva, AAQGL Abdullaev. (2022). Inklyuziv ta'limga bo'lgan ehtiyojlar va sabablar, inklyuziv ta'limga jalg qilish. Science and Education 3 (11), 704-711
20. O Akhmadjonov, A Abdullaev, A Ubaydullayev, I Omonov, ... (2022). ISLOM BANKI VA AN'ANAVIY BANKLAR O 'RTASIDAGI FARQLAR. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 2 ...